

**NIZOMULMULK SIYOSATNOMA ASARI VA AMIR TEMUR
TUZUKLARI**

**NIZAMULMULK'S POLITICAL BOOK AND AMIR TEMUR'S
CONSTITUTION**

**ПОЛИТИЧЕСКАЯ КНИГА НИЗАМУЛМУЛЬКА И КОНСТИТУЦИЯ
АМИРА ТЕМУРА**

Ilmiy rahbar Samatov Xurshid O'lmasjonovich

Mahammatov Asliddin Mamadoli og'li

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali talabasi Telifon raqam: +998904776605

Elektron pochta: mahammatovasliddin@gmail.com

Annostasiya:

Amir Temurning "Temir tuziklari" asarida biz uning harbiy yurishlari va harbiy strategik taktikalarini o'rganishingiz mumkin. Bu yurishlar va taktikalar, hozirgi yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga juda ham qo'shidir. Siyosatnoma bu asar ham unga yaqin turlaridan biridir. Ushbu asar orqali ham biz, harbiy faoliyat va stratigrafikalar ustida mustahkamlashgan hissasi bilan yorqinroq tarbiyalangan bo'lmishmiz.

Kalit so'zlar: Siyar ul-muluk, Tuzuki Temur, Malfuzoti Temuriy, Strategik Harbiy yurish.

Nizomulmulk (1017, Tuye - 1092, Nahovand) — Saljuqiylar davlati arbobi Abu Ali al-Hasan ibn Ali ibn Ishoq at-Tusiyning unvoni, "Nizomulmulk", ya'ni mulkning nizomi, tartibi nomi bilan shuhrat qozongan. Nishopur va Marvda o'qib, voyaga yetgach, Balxga borib, Ali ibn Shodon xizmatiga kiradi. Keyinchalik u Dovud ibn Mikoilga dabir bo'ladi. Saljuqiylar shohi Alp Arslon saroyida vazirlik mansabigacha ko'tariladi. 1072 yil Alp Arslon o'ldirilgach, uning o'g'li, 17 yoshlik Malikshoh (1072—92 yillar) saroyida N. vazirlik qilib, qariyb davlatning hamma ishlarini o'zi olib borgan. Malikshoh uni



o‘z homiysi — otabek deb atagan. N. mamlakatda yirik mulkdorlar va qabila boshliqlarining ayirmachilik (separatistik) harakatlariga qarshi kurashib, davlatni boshqarish ishlarini markazlashtirish siyosatini o‘tkazgan. 1067 yil Bag‘dodda "Nizomiyya" aqid va huquq madrasasini qurdiradi. 1091 yil "Siyosatnoma" ("Siyar ul-muluk") asarini yozadi. Unda davlat boshqaruviga aloqador qariyb hamma qoida va qonunlar, usul va vositalar, qozi va qozixona ishlari, qo‘shin va sarbozlar, xizmatchi va shaxsiy sarbozlar masalalari, saroydagi soqchilaru posbonlar vazifalari, ularning maoshlari, pochta va ayg‘oqchilik (razvedka) ishlari, ularning moddiy jihatlari, hatto shohning oilaviy ishlari, soliq va hiroj, zakot va vaqf masalalari ham o‘rin olgan. Asarning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, vazir N. shoh va hokimlarni adlu insofga, sulh va muruvvatga, davlatni oqilona boshqarib, qat‘iy qoida va tartib o‘rnatishga, amaldorlarni vijdonli, pok, halol va iymonli bo‘lishga, mamlakat obodonligi, uning ahli farovonligi, tinchlik va totuvligini ta‘minlash uchun harakat qilishga da‘vat qiladi. N. Bag‘dod safari yo‘lida yollangan qotil tig‘idan halok bo‘ladi.

"TEMUR TUZUKLARI" — Amir Temurning harbiy va siyosiy faoliyatidan ma‘lumot beruvchi tarixiy asar. "Tuzuki Temur" va "Tuzukoti Temur" nomlari bilan atalgan. Amir Temurning "Tuzuklar" muallifi ekanligini e‘tirof etadigan olimlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Bular orasida "Temur tuzuklari"ning inglizcha tarjimonlari va noshirlari Devi va Uaytlar, mashhur turk qomusiy olimi Shamsuddin Somiy, qo‘lyozmalarning yirik tadqiqotchisi N.D. Mikluxo Maklaylar ham bor. Boshqa bir guruh olimlarning fikricha, asar 16—17-asrlarda Hindistonda yozilgan. Asar 2 qismdan iborat. Birinchi qismda Amir Temurning tarjimai holi, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo‘lga kiritishi, siyosiy tarqoqlikka barham berishi, markazlashgan davlat tuzishi, 27 mamlakatni, shu jumladan, Eron, Afg‘oniston, Ozarbayjon, Gruziya va Hindistonni o‘z tasarrufiga kiritishi, Oltin O‘rda hukmdori To‘xtamish, turk sultoni Boyazid I Yildirimga qarshi harbiy yurishlari, ulkan saltanatini mustahkamlash uchun turli ijtimoiy tabaqalarga nisbatan qanday munosabatda bo‘lganligi buyuk sohibqiron tilidan ixcham tarzda bayon etilgan.

Ikkinchi qism mashhur jahongirning farzandlariga atalgan o‘ziga xos vasiyat, pandnasihatlar va o‘gitlaridan iborat. Unda davlatni idora etishda kimlarga tayanish, toju taxt egalarining tutumi va vazifalari, vazir va qo‘shin boshliqlarini tanlash,



armiyaning tuzilishi va jang olib borish qoidalari, sipohiylarning maoshi, mamlakatni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo‘shin boshliklarining burch va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju taxt oldida ko‘rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash yo‘cini va boshqa xususida gap boradi.

Asar Amir Temur davridagi o‘zbek davlatchiligi tarixini o‘rganishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. "Temur tuzuklari" ("Tuzuki Temuriy")ning fanda qayd etilgan ilk nusxasi eski o‘zbek tilda bitilganligi ma‘lum. Bu usmoniy turk hokimlaridan biri — Yaman hokimi Ja‘far Posho (hukmronlik yillari 1607—12) ning kutubxonasidagi turkiy tilda yozilgan asar bilan bog‘liq. "Tuzuki Temuriy"ning suz boshida keltirilishicha, o‘rtaosiyolik Mir Abu Tolib Husayniy alAriziy atTurbatiy Makkai mukarrama va Madinai munavvaraga haj qilgan vaqtida asarni o‘qishga muyassar bo‘lgan va 1610-yil Ja‘far Poshoning topshirig‘i bilan uni fors tiliga o‘giran. Bizgacha ana shu forsiy nusxa tosh bosmalar, zamonaviy nashrlar va qo‘lyozmalar shaklida yetib kelgan. Husayniy Turbatiy forsha tarjimini 1637-yil boburiy hukmdor Shoh Jahonga (1628—57) tortiq qilgan. Shoh Jahon tarjima bilan tanishib chiqib, unda ayrim noanikliklar va kamchiliklar topgan hamda yirik olim, Dekan viloyatining qozikaloni Muhammad Ashraf Buxoriy (vafoti 1652-yil) huzuriga chaqirtirib, mazkur tarjimini mo‘tabar asarlar, xususan, Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si va shunga o‘xshash muhim manbalarga solishtirib chiqish va shu yo‘l bilan tarjimadagi xato va kamchiliklarni bartaraf qilishni topshirgan. Muhammad Ashraf Buxoriy ko‘rsatmaga ko‘ra, Mir Abu Tolib alHusayniy atTurbatiy nusxasini diqqat bilan tahrir qilgan. Shu zaylda asarning yangi, to‘ldirilgan tahriri vujudga keladi va u "Malfuzoti Temuriy" ("Temurning aytganlari") va "Voqeoti Temuriy" ("Temurning boshidan kechirganlari") nomi bilan taniladi. Keyinchalik undan ko‘plab nusxalar ko‘chirilgani ma‘lum.

Ma‘lum bo‘ladiki, Boburiylar saltanatida "Tuzuki Temuriy" asosida ikkita mustaqil asar vujudga kelgan va ularning keyingi asrlarda tarqalishi bilan bog‘liq o‘ziga xos tafsilotlar bor.

"Tuzuki Temuriy" nusxasini dastlab Hindistonda yashagan ingliz zobiti mayor Devi 1779-yilda Angliyaga olib kelgan. So‘ngra arab tili professor ingliz mayori Uaytga uni ko‘rib chiqish uchun topshirgan. Uayt "Tuzuki Temuriy" ning forsha matnini nashrga tayyorlagan, mayor Devi esa uni inglizchaga o‘giran va ko‘rsatkich, izohlar bilan ta‘minlagan. Asar matni va inglizcha tarjimasi 1783-yilda



Yana shuni ham qo'shib aytishimiz mumkin bo'ladi. Amir Temur shaxsini idrok etish–tarixni idrok etish demakdir. Amir Temurni anglash–o'zligimizni anglash demakdir. Amir Temurni ulug'lash–tarix qa'riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizni, ishonchimizni mustahkamlash demakdir. Bu haqda gapirganda, Amir Temurning davlatchilik va diplomatiya, harbiy mahorat, bunyodkorlik salohiyati, ilmu fan, san'at va me'morchilikka oid qarashlari, hayotning ma'no-mazmuni, insonni ulug'laydigan ezgu ishlar haqida bildirgan fikrlari, dinu diyonat va adolatni joyiga qo'yish, saltanat ishlarini kengash va tadbir asosida amalga oshirish, har bir masalada uzoqni ko'zlab, el manfaatini o'ylab ish tutish bilan bog'liq ibratli fazilatlarini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Aynan mana shunday masalalar Sohibqiron tafakkurining mahsuli bo'lgan "Temur tuzuklari" asarida har tomonlama aniq, ishonarli va ta'sirchan tarzda yoritilgan, desak, haqiqatni aytgan bo'lamiz. Shaxsan men Sohibqiron bobomiz bizga meros qilib qoldirgan "Tuzuklar"ni o'qisam, xuddiki o'zimga qandaydir katta ruhiy kuch-quvvat topgandek bo'laman. Har bir satri bir umr el-yurt, saltanat tashvishi bilan yashagan fidoyi inson, ulkan davlat arbobining keng miqyosdagi o'y-fikrlari, hayot va kurash tajribasi, mushohadasi, ba'zan esa dardli va iztirobli kechinmalari bilan sug'orilgan bu asarda qanday teran ma'no mujassam ekanini ma'rifatli, zukko kitobxon yaxshi angelaydi, albatta. Men o'z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan hayot hikmatlarining qanchalik to'g'ri ekaniga ko'p bor ishonch hosil qilganman. Masalan, "Tajribamda ko'rilgankim, azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshirokdir", degan fikrlar bugungi kunda ham naqadar dolzarb ekani barchamizga ayon. Yoki u zotning: "Saltanat ishlarining to'qqiz ulushini mashvarat, tadbir va kengash, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirish zarur", degan ko'rsatmalarida hozirgi notinch zamon uchun, XXI asr siyosatdonlari uchun ham har jihatdan ibratli fikrlar borligini ta'kidlash joiz. Bugungi murakkab va tahlikali davrda bu kitobni qayta-qayta mutolaa qilish, uning mag'zini chaqish birinchi galda rahbar, yetakchi bo'lishdek mas'uliyatli vazifani o'z zimmasiga olgan odamlar uchun, qolaversa, har qaysi ziyoli inson uchun bag'oyat foydali ekani haqida ortiqcha gapirib o'tirishga hojat yo'q, deb o'ylayman. Ishonchim komilki, yoshlarimiz bu kitobni mehr qo'yib, tushunib, chuqur anglab o'qisa, ularning qalbida milliy g'urur tuyg'usi yuksaladi, o'zining qanday buyuk zotlarning avlodi ekanini yanada chuqurroq his etib,



hayotning har qanday sinov va qiyinchiliklarini yengishga qodir insonlar bo‘lib voyaga yetadi. Tuzuki Temuriy» («Temur tuzuklari»), «Malfuzoti Temuriy» («Temurning aytganlari») va «Voqeoti Temuriy» («Temurning boshidan kechganlari») nomlari bilan atalmish asar e‘tiborga molik tarixiy manbalar jumlasidan. «E‘tiborga molik» deganimizning boisi shuki, uning nusxalari (qo‘lyozmalari ham, toshbosmalari ham) ko‘p tarqalgan. «Temur tuzuklari»ni bugun jahonning ko‘pgina mamlakatlarida, masalan, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, Angliya, Fransiya, AQSh, Finlyandiya, Daniya, Eron, Hindiston, Turkiya, Misr, Yaman kutubxonalaridan topish mumkin. O‘z-o‘zidan ma‘lumki, qaysi bir asar qimmatli, amalda zarur bo‘lsa, undan ko‘proq nusxa ko‘chirilgan. «Temur tuzuklari» ham ana shunday asarlar sirasidandir. U ko‘proq sohibi tojlarga kerak bo‘lgan. Shuning uchun ham hukmdorlarning ko‘pchiligi bu va shunga o‘xshash asarlardan nusxa ko‘chirtirib, shaxsiy kutubxonalarida asragan va ijtimoiy-siyosiy faoliyatlarida ulardan muhim yo‘l-yo‘riq sifatida foydalangan. Masalan, buyuk vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburning avlodi Shohjahon (1628–1657), Qo‘qon xoni Muhammadalixon (1821–1842) va Buxoro amiri Abdulahadxon (1885–1910) chapdast kotiblariga 4 buyurib, «Temur tuzuklari»dan o‘zlari uchun nusxa ko‘chirtirganlari ma‘lum. Ko‘chirganda ham zo‘r mas‘uliyat va qunt bilan ko‘chirganlar. Hindistonlik muarrix Abdulhamid Lohuriyning (1654 y. vafot etgan) «Podshohnoma»sida (mavlaviy Kabiriddin Ahmad va Abdurahimlar amalga oshirgan nashr, Kalkutta, 1866–1872 y., I jild, 288-sahifa) bunday gap bor: «Hijriy 1047-(milodiy 1637–1638) yili Mir Abu Tolib al-Husayniy at-Turbatiy degan shaxs Shohjahonga «Tuzuki Temuriy»ning forsiy tarjimasini taqdim etgan. Podshoh tarjima bilan tanishib chiqib, uni qozikalon, iste‘dodli yozuvchi Muhammad Afzal Buxoriyning (1651 yoki 1652 y. vafot etgan) qo‘liga tutqazgan va Sharafiddin Ali Yazdiyning (1454 y. vafot etgan) mashhur «Zafarnoma» asariga solishtirib va kamchiliklari bo‘lsa, tuzatib, xattot va muarrixlari o‘zidan qo‘shgan ortiqcha joylari bo‘lsa o‘chirib tashlashni buyurgan. «Temur tuzuklari»ning shu kunlargacha yetib kelgan qo‘lyozma va toshbosma nusxalari o‘sha Mir Abu Tolib al-Husayniy at-Turbatiy tarjimasida yaratilgan. Bu – birinchidan. Ikkinchidan, mazkur asar XVIII asrdan beri (balki undan ilgariroq bo‘lishi ham mumkin, lekin bu haqda qo‘limizda ma‘lumot yo‘q) dunyo olimlarining diqqat-e‘tiborini qozonib keladi. Masalan, asarning matni, tadqiqot va zarur ilmiy izohlar bilan 1783-yilda Angliyada, 1785 va 1891-yilda Hindistonda, 1868-yili Eronda chop etildi. Asar jahon tillaridan



bir nechtasiga: fransuz (1787), ingliz (1830), urdu (1845), rus (1894, 1934) va eski o‘zbek (1835, 1857, lekin to‘liq emas) tillariga tarjima qilinib, nashr etildi. 5 Uning toshbosma nusxalari (Tehron – 1868, Toshkent – 1890 va h.k.) ham keng tarqalgan. Qiziq, bu tasodifiymi yoki qonuniymi – bilmadim, «Temur tuzuklari» ham, O‘rta Osiyo zaminida yaratilgan ko‘pgina ajoyib asarlar singari, avval o‘zga yurtlarda, xususan, Yevropada shuhrat topdi. «Temur tuzuklari» – podshohlarning turishturmushini va axloq-odob me‘yorlarini belgilovchi risola. Asar ikki qismdan iborat. Birinchi qismda jahon tarixida mashhur foh, sarkarda va iste‘dodli davlat arbobi sifatida nom qoldirgan Amir Temurning yetti yoshi (1342) dan to vafotiga (1405 yil, 18 fevral) qadar kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, aniqroq qilib aytganda, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo‘lga kiritish, feodal tarqoqlikka barham berish va markazlashgan davlat tuzish, qo‘shni yurt va mamlakatlarni, masalan, Eron hamda Afg‘onistonni o‘z tasarrufiga kiritish, Oltin O‘rda hukmdori To‘xtamishxon (1376–1395), butun Yevropaga qo‘rquv va dahshat solgan Turkiya sultoni Boyazid Yildirim (1389–1402)ga qarshi va nihoyat, buyuk Jahongirning Ozarbayjon, Gruziya va Hindistonga qilgan harbiy yurishlari ixcham tarzda bayon etilgan. Ikkinchi qism jahongirning nomidan aytilgan va uning toj-u taxt vorislariga atalgan o‘ziga xos vasiyat va pand-nasihatlaridan iborat. Unda davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalarining tutumi va vazifalari, vazir va qo‘shin boshliqlarini saylash, sipohiylarning maoshi, mamlakatlarni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo‘shin boshliqla 6 rining burch va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toj-u taxt oldida ko‘rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqalar xususida gap boradi. Ta‘bir joiz bo‘lsa aytmoqchimanki, «Tuzuk» yozish odati Amir Temurdan avval ham bo‘lgan, keyin ham. Bu odat aslida xitoylardan va turk-mo‘g‘ul xonlaridan qolgan. Masalan, turk xoqonlaridan qolgan «Qonunnoma», Chingizxondan qolgan «Bilik», Xondamir (1474–1535) yozgan «Qonuni Humoyun», Ro‘zbehon (1458–1521 yoki 1530) ning qalamiga mansub bo‘lgan va shayboniylardan Ubaydullaxonning topshirig‘i bilan yozilgan «Suluk al-muluk» (Podshohlarga yo‘l-yo‘riq) shular jumlasidandir. Bunday asarlarda davlatni idora qilish tartibi, soliq solish va uni to‘plash tartibi, harbiy yurishlarni o‘tkazish va qo‘zg‘olonni bostirish qoidalari bayon etiladi. Mutaxassis olimlarning (A. A. Semyonov, Ch. Re, E. G. Braun va boshqalar) so‘zlariga qaraganda «Temur tuzuklari» boshda turkiy tilda yozilgan va uning bir nusxasi Yaman hokimi Ja‘far podshohning kutubxonasida saqlangan. Yuqorida

nomi tilga olingan Mir Abu Tolib al-Husayniy at-Turbatiyning forsiycha tarjimasi ana shunday turkiycha nusxalardan biriga asoslangan, albatta. Asarning muallifi ma'lum emas. Butun voqea bir shaxs – Amir Temur nomidan hikoya qilinadi. Aslida shundaymi yoki Amir Temur aytib turgan, kotib yozib olganmi, yo bo'lmasa uning aytganlarini kimdir jam qilib kitob tuzganmi, bu haqda qat'iy bir fikr aytish qiyin. Sharq mamlakatlarida bu mashhur asar chin 7 dan ham Amir Temur tarafidan yozilganligi va uning tarjimai holi ekanligi e'tirof qilinadi. Chunonchi, Somiyning «Qomus ul-a'lom» (Istanbul, 1891, 1727) asarida «Amir Temur «Tuzukot» unvonli qonunlar majmuasini qalamga olib, unda o'zining tarjimai holini bayon etgan» deyilgan. Temur bilan To'xtamishxon o'rtasidagi urushlar tarixini yozgan fransuz sharqshunosi M. Sharmua va rus harbiy tarixchisi M. I. Ivanin (1801–1874) «Tuzuklar»ni Amir Temur o'zi yozgan va u muhim avtobiografik asar, deb qayd etganlar. Biroq yevropalik boshqa bir guruh olimlar (E. G. Braun, Ch. A. Stori, V. V. Bartold) «Temur tuzuklari»ni soxta asar, uni Amir Temur yozmagan, deydilar. A. Yu. Yakubovskiyning fikricha, asar XVIII asrda Hindistonda yozilgan. Ingliz olimi Ch. A. Stori yuqorida nomi zikr etilgan Mir Abu al-Husayniy at-Turbatiyni asarning muallifi, deb taxmin qilgan. Xullas, qanday bo'lmasin, asarni Temur yoki boshqa odam yozganligidan qat'iy nazar, u soxta emas, balki chin asardir. Agar unda bayon etilgan voqealarni Nizomiddin Shomiyning Amir Temur tarixini o'z ichiga olgan mashhur «Zafarnoma»si yoki Sharafiddin Ali Yazdiyning shu nomdagi asari bilan solishtirilsa, bunga to'la ishonch hosil qilish mumkin. Masalan, Sharafiddin Ali Yazdiy shunday yozadi: «...shu tartibda ul hazrat (Amir Temur) hayotining ulug' voqealari va kechinmalarini o'z ichiga olgan turkiy manzuma va forsiy asar, alohida-alohida nazm va nasr tarzida tuzilgan edi». «Temur tuzuklari» ham feodalizm jamiyati sharoitida bitilgan boshqa asarlar singari hukmron sinf 8 ning maqsad va manfaatlarini ko'zlab yozilgan, o'sha sinfning dunyoqarashini ifoda etgan. Asarda Amir Temurning harbiy yurishlari buzuq odamlarning ko'payishining oldini oluvchi harakat deb, o'z ozodligi va vatanining mustaqilligini himoya qilgan xalqlar esa kofir, buzg'unchi, bezori (avbosh) deb atalgan. Tobelikdan bo'yin tovlagan yoki shunga intilgan nene yurtlarning xalqi «oq uylik» qilinib, o'zga yurtlarga majburan ko'chirib yuborilgan. Temurning o'zi esa odil va insonparvar podshoh sifatida tasvirlanadi, uning shaxsi ko'p jihatdan ideallashtiriladi. Shunga qaramay, asarda fan uchun muhim ma'lumot va faktlar ko'p. Avvalambor, «Temur tuzuklari» Amir Temurning tarixi, uning zamonida, aniqrog'i, 1342–1405-yillar orasida



Movarounahrning ijtimoiy-siyosiy ahvoli, Temur va temuriylar davlati hamda qo‘shinining tuzilishi, o‘sha yillarda Temur davlatining qo‘shni mamlakatlar va xalqlar bilan bo‘lgan munosabatlari haqida hikoya qiladi. Men yuqorida bu asarda muhim va original ma’lumotlar ko‘p, deb aytdim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nizomulmulk, Siyosatnoma yoki Siyar ul-muluk.
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Nizomulmulk>
3. emur tuzuklari [forschadan Alixonto‘ra Sog‘uniy va Habibulla Karomatov tarjimasini].
4. Karomatov H., "Temur tuzuklari"ni O‘zbekistonda o‘rganish muammolari (Temuriylar davri madaniy yodgorliklari).

